


# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



**Shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishda nutq madaniyatining o‘rni**

**Zuvaydillayeva Muqaddas Zokirovna**

Qarshi tumani 19-maktab ingliz tili o'qituvchisi


## **Annotatsiya**

Maqolada shaxslararo munosabatlarga kirishishda mos muloqot vositasini tanlash yo'llari, nutq madaniyati va uni rivojlantirib borishning ahamiyati, nutqning shaxslararo munosabatlarga kirishishda roli va nutq madaniyatini rivojlantirish texnikalari haqida so'z yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** muloqot, til, nutq, ta'lif, tarbiya, munosabat, qiziqish, shaxs, shaxslararo munosabat, faoliyat.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot - odamlarning birligidagi faoliyatlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatları (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinushi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'likdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi:


- a) individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni;
- b) individlar o‘rtasidagi axborot almashinushi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o‘zaro *bir - birini tushunishlarini* ta’minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, xol - ahvol so‘raydi. Shunisi xarakterlik, ta’ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o‘ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o‘g‘rilanib ketilishi, so‘ng ma’lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo‘lishi faktlari shuni ko‘rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko‘plab psixologik eksperimentlarda o‘z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko‘plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya’ni odamni yolg‘izlatib qo‘yishning uning ruhiyatiga ta’siri o‘rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg‘izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o‘zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o‘zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o‘rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg‘izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, qayg‘u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqliki, yolg‘izlikka mahkum bo‘lganlar ma’lum vaqt o‘tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko‘rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo‘lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo‘lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g‘or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim...».

Insonning hayvonot olamidan farq qiluvchi, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biri nutq

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



deb ataluvchi alohida psixik jarayonning mavjudligi hisoblanadi. **Nutq** – bu odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Gapira olish va begona tilni tushunish malakasiga ega bo‘lish uchun tilni bilish va undan foydalana olish zarur.

Til va nutqning psixologik faoliyatda tutgan o‘rni.

Til va nutqning psixologik rivojlanish yo‘lida tutgan o‘rni beqiyosdir. Nutqning paydo bo‘lishi bilan birga insonning psixologik va ruhiy doirasi ham rivojiana boshlaydi. Masalan, qabul qilish, xotira, tafakkur, tasavvur, e’tibor kabilar faqatgina til tufayli rivojiana boradi.


Nutq – inson psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, boshqa psixologik jarayonlarni boshqarib, bir biriga boq’lab turadi. Inson onggidagi tafakkur va tasavvur qilish jarayonlari nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson fikrlash faoliyati – nutqiy tafakkurni paydo qiladi. Nutqning rivojlanishi boshqa psixologik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Nutq o‘z navbatida tashqi, ichki, og‘zaki, yozma dialog va monolog ko‘rinishlarida bo‘ladi. Nutq o‘zaro munosabat va muloqotda eng asosiy quroq hisoblanadi.

Muloqot- bu odamlar o‘rtasidagi aloqa, buning natijasida odamlarning bir biriga bo‘lgan ta’siri paydo bo‘ladi. Muloqot davomida odamga nisbatan extiyoj tug‘iladi. Muloqot tufayli odamlar turli xil amaliy va nazariy faoliyatlarini uyushtiradi. Bundan tashqari axborot almashish, bir-birini tushinish kabi jarayonlar ham muloqot tufayli sodir bo‘ladi. Shuningdek, muloqot shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni yaratib, ularni amalda qo‘llashdayordam beradi.

Psixologiyada «til» va «nutq» tushunchalari mavjud. **Til** – bu odamlar uchun ma’lum ma’no va ahamiyat kasb etuvchi tovush birikmalarini etkazuvchi shartli ramzlar tizimi. Til jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, odamlarning ijtimoiy ongida ularning ijtimoiy turmushini aks ettirish shakli, shuningdek, ijtimoiy-

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Tilning noyob hodisaviyligi shundaki, har bir odam atrofdagilar muloqotda bo‘ladigan tarkib topgan tilga ega bo‘ladi va rivojlanish jarayonida uni o‘zlashtirib boradi.

Til – bu murakkab hosila. Istalgan til, avvalo, tilning **leksik tarkibi** deb ataluvchi ma’nodor so‘zlarning ma’lum tizimiga egadir. Bundan tashqari, til so‘z va so‘z birikmalari turli shakllarining ma’lum tizimidan iborat bo‘lgan til **grammatikasiga**, shuningdek, aniq bir tilga xos bo‘lgan ma’lum tovush yoki **fonetik** tarkibga egadir.


Til, asosan, har bir so‘z ma’nosini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. So‘zning istalgan ma’nosini umumlashtirishni anglatadi, masalan, slova «odam», «mashina», «stol» va boshqalar.

Tildan farqli ravishda nutq deb ma’lumot etkazish, ko‘rsatma, savol, buyruq berish shaklida amalga oshiriladigan nutqiy muloqot jarayoniga aytildi. Nutq yordamida u yoki axborotni etazish uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan mos so‘zлarni tanlash emas, balki ularni aniqlashtirish ham lozim. Nutqdagi har bir so‘z ma’lum ma’nogacha qisqartirilgan bo‘lishi zarur. Bunga so‘zni ma’lum kontekstga kiritish bilan erishiladi. Masalan, «bu qanday mashina?» degan savol bilan bizni jismning o‘zida qiziqtirayotgan holatni aniqlashtirmoqchi bo‘lganimizda murojaat qilamiz, agarda «bu kimning mashinasi?», deb savol bersak, bizni jism emas, uning kimga tegishliligi qiziqtirayotgani ma’lum bo‘ladi.

Nutqda so‘z ifodalari bilan yetkaziladigan mazmundan tashqari, bizning so‘zlayotganlarimizga nisbatan munosabatimiz ham ifodalanadi. Bu hodisa nutqning **emotsional-ifodali jihat** deb ataladi va iborani talaffuz qilishda qo‘llaydigan so‘zlarning jaranglash toni bilan belgilanadi.

Va nihoyat, nutq psixologik jihatdan mohiyatga ega bo‘lgan u yoki bu ibora maqsadini aks ettiruvchi kontekstdan iborat bo‘ladi.

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Shunday qilib, nutqiy muloqot – bu murakkab va ko‘p tomonlama jarayon. A.n. leontevning fikriga ko‘ra, har bir nutq akti «o‘ziga xos nutqning shakli va turi, aniq sharoitlar va muloqot maqsadlariga ko‘ra, turli nutq vositalarini qo‘llashni talab etuvchi psixologik muammoning echimini topishdan iborat». Xuddi shu nutqni tushunishga ham tegishlidir.

Muloqoting universal vositasi sifatidagi hozirgi zamon nutq holatigacha odamning uzoq davom etgan filogenezdagi taraqqiyot jarayoni bo‘lib o‘tgan edi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, nutq – bu insonga xos bo‘lgan faoliyat. Nutq bilan birga til ham, ilk marotaba faqat insoniylik jamiyatida, hamkorlikdagi mehnat jarayonida yuzaga keldi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Safaev N., Mirashirova N, Odilova N. Umumiyl psixologiya nazariyasi va amaliyoti (O‘quv qo‘llanma) T.: .2013-64B.

## **INTERNET MANBALAR:**

- 1.[https://bookap.info/sociopsy/cheldyshova\\_shpargalka\\_po\\_sotsialnoy\\_psihologii/gl32.shtm](https://bookap.info/sociopsy/cheldyshova_shpargalka_po_sotsialnoy_psihologii/gl32.shtm)
2. <https://studfiles.net/preview/3535705/>